

## XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING TASHQI SAVDO FAOLIYATIGA BANKLAR TOMONIDAN HISOB-KITOB XIZMATI KO‘RSATISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

**Ibodullayeva Ma‘rifat To‘lqin qizi**

PhD, Bank-moliya akademiyasining dotsenti

### **Annotatsiya**

Tijorat banklarining xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko‘rsatish amaliyotini takomillashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga eksport tushumini o‘z vaqtida olish hamda import to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi. Jumladan, hujjatlashtirilgan akkreditivlar eksport qilingan tovarlar summasining to‘lanishini to‘liq kafolatlaydi. Aksincha, bank o‘tkazmasida to‘lov kafolatlanmagan hisoblanadi.

Maqolada respublika tijorat banklarining xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko‘rsatish amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq dolzarb muammolar aniqlangan hamda ularni hal etishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** tijorat banki, akkreditiv, inkasso, bank o‘tkazmasi, chek, bank kafolati, eksport, import, kredit.

### **Аннотация**

Совершенствование практике оказания расчетных услуг коммерческих банков на внешнеторговую деятельность хозяйствующих субъектов позволяет своевременно получить экспортную выручку и своевременно оплатить импорт хозяйствующих субъектов. В частности, документарные аккредитивы полностью гарантируют оплату сумму экспортированных товаров. Наоборот, оплата вообще не гарантирована в банковских переводах.

В статье выявлены актуальные проблемы, связанных с совершенствованием практике оказания расчетных услуг коммерческих банков на внешнеторговую деятельность хозяйствующих субъектов и разработаны научные предложения, направленных на решение этих проблем.

**Ключевые слова:** коммерческий банк, аккредитив, инкассо, банковский перевод, чек, банковская гарантия, экспорт, импорт, кредит.

### **Abstract**

Improving the practice of providing settlement services to commercial banks for the foreign trade activities of business entities allows for timely receipt of export earnings and timely payment for imports of business entities. In particular, documentary letters of credit fully guarantee payment for the amount of exported goods. On the contrary, payment is not guaranteed in bank transfers at all.

The article identifies current problems related to improving the practice of providing settlement services to commercial banks for the foreign trade activities of business entities and develops scientific proposals aimed at solving these problems.

**Keywords:** commercial bank, letter of credit, collection, bank transfer, check, bank guarantee, export, import, loan.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”da 2026-yil yakuniga qadar respublika banklari aktivlari hajmida xususiy sektor ulushini 60 foizga yetkazish hamda respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda mamlakat eksport hajmini 30 mlrd AQSH dollariga yetkazish vazifalari belgilangan [1]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga muvofiq, tovar-xom ashyo birjalarida tovarlarni va (yoki) qimmatli qog‘ozlar savdosi tashkilotchilarining ochiq elektron savdolarida aksiyalarni sotishdan olingan mablag‘lar hisobiga norezidentlar tomonidan, shu jumladan, norezidentlar nomidan birja brokerlari va investitsiya vositachilari orqali valyuta mablag‘larini sotib olish va sotishga ruxsat etilganligi [2] tijorat banklarining xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko‘rsatish amaliyotini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

O. Gryaznovaning xulosasiga ko‘ra, tashqi savdoni moliyalashtirishning hujjatlashtirilgan akkreditivlar, trattalar muomalasiga asoslangan inkasso, bank kafolatlari, ijro obligatsiyalari (performance bonds), akkreditivlarni tasdiqlash kabi an‘anaviy shakllari bilan birga, an‘anaviy bo‘lmagan shakllardan foydalanish eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va import hajmini qisqartirish imkonini beradi [3].

O. Gryaznova tashqi savdoni moliyalashtirishning an‘anaviy bo‘lmagan shakllardan foydalanish deganda ochiq hisobraqamlar bo‘yicha hisob-kitobni, xalqaro faktoring va xalqaro forfeytingni nazarda tutadi.

A. Gloriov va D. Mixaylovlarning xulosasiga ko‘ra, eksport-import operatsiyalarini banklar tomonidan moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy va siyosiy risklardan himoyalani uchun quyidagi hisob-kitob shakllari va to‘lov usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

- hujjatli inkasso;
- sof inkasso;
- avansli o‘tkazma;
- stend-bay akkreditiv;
- chaqirib olinmaydigan akkreditiv;
- ochiq hisobraqamlar bo‘yicha hisob-kitob [4].

Fikrimizcha, ochiq hisobraqamlar bo‘yicha hisob-kitob iqtisodiy va siyosiy risklardan himoyalani imkonini bermaydi. Chunki bu turdagi hisoblashishlarda jo‘natiladigan tovarlar summasi oldindan eksportyorning bankida ochilgan ochiq hisobraqamga o‘tkaziladi. Tovarlarning jo‘natilganligini tasdiqlovchi hujjatlar eksportyorning bankiga taqdim etilgach, eksport tushumi summasi ochiq hisobraqamdan eksportyorning joriy hisobiga o‘tkaziladi. Biroq eksportyorning ham, importyorning ham banki to‘lov yuzasidan javobgar emas. Aytaylik, importyor mamlakatida siyosiy risk chuqurlashishi natijasida tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi “Nostro” vakillik hisobraqamlaridan to‘lovlar amalga oshirilmay qolsa,

eksportyor eksport tushumini ola olmaydi. Shu bois, ochiq hisobraqamlar bo'yicha hisob-kitob eksportyorini siyosiy riskdan himoya qilmaydi.

I. Leshchukovning fikricha, eksportni moliyalashtirishda hujjatlashtirilgan akkreditiv keng qo'llaniladi va u eksportyor uchun quyidagi afzalliklarga ega:

- eksportyor eksport qilingan tovarlar uchun to'lovni kafolatlangan tarzda oladi;
- ochilgan akkreditivni birinchi toifali xorijiy bank tomonidan tasdiqlatish imkoniga ega bo'ladi;
- importyor mamlakatining valyuta qonunchiligiga bog'liq bo'lmagan tarzda yetkazilgan tovar uchun to'lovni oladi [5].

Darhaqiqat, hujjatlashtirilgan akkreditiv eksport qilingan tovarlar uchun to'lovni to'liq kafolatlaydi. Bundan tashqari, akkreditivning birinchi toifali xorijiy bank tomonidan tasdiqlanishi siyosiy risklardan qochish imkonini beradi.

I. Rozinskiyning tadqiqotlari ko'rsatishicha, hozirgi kunda xalqaro savdoning 80 foizdan ortig'i ochiq hisobraqamlar asosida moliyalashtirilmoqda [6]. Haqiqatan ham, bu usul nisbatan arzon moliyalashtirish shakli hisoblanadi. Biroq u, odatda, bir-birini uzoq yillardan buyon biladigan va o'zaro ishonchi yuqori bo'lgan hamkorlar — eksportyorlar va importyorlar o'rtasida keng qo'llaniladi. O'zbekiston eksportyorlari uchun esa eksport qilinadigan tovarlar bo'yicha to'lov summasini kafolatlangan tarzda olish imkonini beruvchi moliyalashtirish shakllari va usullari muhim ahamiyat kasb etadi.

F. Ahmedovning fikricha, xorijiy banklarning "Vostro" vakillik hisobraqamlarini O'zbekiston tijorat banklarida ochishni rag'batlantirish banklarning valyuta operatsiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [7].

Bu xulosa bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki hanuzgacha xorijiy banklarning O'zbekiston banklarida "Vostro" vakillik hisobraqamlari ochilmagan. Ularning mavjud emasligi mamlakat banklarining likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni import operatsiyalari bo'yicha barcha to'lovlar xorijiy banklarning "Vostro" hisobraqamlari bo'lmagani sababli respublika tijorat banklarining xorijiy valyutadagi "Nostro" hisobraqamlari orqali amalga oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, import bo'yicha to'lov amalga oshirilganda "Nostro" hisobraqamlardagi debet qoldig'ining kamayishiga olib keladi.

A. Goroxovning fikricha, to'lov instrumentlari pul mablag'lari harakatining algoritmiga ko'ra kreditli, debetli va oraliq instrumentlarga bo'linadi. Bunda to'lov topshiriqnomasi va to'lov talabnoma-topshiriqnomasi kreditli instrument, to'lov talabnomasi va chek — debetli instrument, hujjatlashtirilgan akkreditiv esa oraliq instrument hisoblanadi [8].

T. Bobakulovning xulosasiga ko'ra, iqtisodiyotni pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasining pastligi iqtisodiyotda o'zaro to'lovsizlik muammosini chuqurlashtiradi, korxonalarining pul oqimini zaiflashtiradi va to'lov qobiliyatini rag'batlantirishga to'sqinlik qiladi [9].

I. Alimardonov o'zining dissertatsion tadqiqotlari natijalariga asoslanib quyidagi xulosani bildiradi: "Tijorat banklari to'lovga qobiliyati yuqori bo'lgan kichik biznes subyektlari hamda davlat xarid tizimiga kiruvchi kichik korxonalar va

mikrofirmalarning hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha import to'lovlarini muddatli hamda overdraft kreditlari hisobidan to'lashni yo'lga qo'yishlari lozim" [10].

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqot metodologiyasi tijorat banklarining tashqi savdo hisob-kitob amaliyoti bo'yicha hisobotlari, Markaziy bank ma'lumotlari hamda xalqaro to'lov tizimlari tajribasini o'rganishga asoslandi. Olingan ma'lumotlar tahlilida taqqoslama, statistik va dinamik tahlil usullari qo'llanilib, tashqi savdo operatsiyalarida hisob-kitob xizmatlari samaradorligi baholandi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Xalqaro amaliyotda xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishda to'rtta xalqaro hisob-kitob shakli qo'llaniladi:

- bank o'tkazmasi;
- chek;
- inkasso;
- hujjatlashtirilgan akkreditiv.


Ushbu xalqaro hisob-kitob shakllaridan eng keng qo'llaniladiganlari — hujjatlashtirilgan akkreditiv va inkassodir.

Hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha xalqaro umumlashtirilgan qoidalarga (UCP 500) muvofiq, ularning oltita shakli mavjudligi e'tirof etilgan [11]. Chaqirib olinadigan akkreditivlar — bu akkreditivni ochgan bank (akkreditiv bank) tomonidan istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin bo'lgan shakldir. Chaqirib olinmaydigan akkreditivlar esa, uni ochgan bank tomonidan benefitsiar, xabar beruvchi bank va arizachining roziligisiz bekor qilinmaydi. Tasdiqlanadigan akkreditivlar — bu uchinchi mamlakat banki tomonidan tasdiqlanadigan akkreditivlardir (bunday tasdiqlash, odatda, siyosiy risklardan qochish maqsadida amalga oshiriladi). Qoplanadigan akkreditivlarda esa, akkreditiv summasi to'lovchining joriy valyuta hisobraqamidan olinib, alohida hisobda deponent qilinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatida yuzaga keladigan to'lovlarni amalga oshirishda nisbatan keng qo'llaniladigan ikkinchi xalqaro hisob-kitob shakli — bu inkassodir.

Inkasso bo'yicha xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi Inkasso bo'yicha xalqaro umumlashtirilgan qoidalar bilan tartibga solinadi. Mazkur hujjatga ko'ra:

- inkasso — bu inkassoga qabul qiluvchi bank tomonidan trattani yoki boshqa hujjatni olish, uzatish va mijozga to'lov uchun taqdim etish jarayonidir;
- inkassoda inkassoga qabul qiluvchi bank ham, xabar beruvchi bank ham to'lov uchun kafil hisoblanmaydi;
- inkassoning ikki turi mavjud: sof inkasso va hujjatli inkasso. Sof inkassoda faqat to'lov hujjatlari inkassoga qabul qilinadi, hujjatli inkassoda esa, tovar hujjatlari yoki tovar hujjatlari bilan birgalikda to'lov hujjatlari inkassoga qabul qilinadi (1-rasm) [12].



**1-rasm. AT “Asakabank”da mijozlarning import to‘lovi bo‘yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar summasining o‘zgarishi, (mlrd. so‘m<sup>1</sup>)**


1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, Asakabank tomonidan mijozlarning import to‘lovi bo‘yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar summasi 2020–2022-yillar davomida kamayish tendensiyasini ko‘rsatgan. Buning ustiga, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan bu ko‘rsatkich yanada yuqori sur’atda pasaygan. Bu holat Asakabankning xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko‘rsatish amaliyotini takomillashtirish nuqtai nazaridan salbiy holat sifatida baholanadi.

Respublikamiz tijorat banklari tomonidan mijozlarning tashqi savdo faoliyati bo‘yicha ochilgan akkreditivlarning sezilarli qismini qoplangan akkreditivlar tashkil etadi. Qoplangan akkreditivlarning asosiy kamchiligi shundaki, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tegishli bo‘lgan valyuta mablag‘larining bir qismi ularning xo‘jalik aylanmasidan chiqib qoladi.

Hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo‘yicha xalqaro umumlashtirilgan qoidalar (UCP 600)da akkreditiv summasi, tovarning miqdori va bahosiga nisbatan ruxsat etilgan chetlanishlarning chegaraviy darajasi aniq belgilangan:

- UCP 600 qoidasiga muvofiq, akkreditiv summasi, tovar miqdori va tovar birligining bahosiga nisbatan 10 foizgacha (ko‘p yoki kam) chetlanishga ruxsat etiladi;
- agar tovar hujjatlarida, masalan, o‘rash varag‘ida tovar soni aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa va akkreditiv bo‘yicha talab etilayotgan summa akkreditiv summasidan oshib ketmasa, 5 foizgacha (ko‘p yoki kam) chetlanishga ruxsat etiladi;
- qisman yuklashga ruxsat berilmagan bo‘lsa ham, akkreditiv summasiga nisbatan 5 foizgacha chetlanishga ruxsat etiladi. Agar akkreditivda ma’lum chetlanish ko‘rsatilgan bo‘lsa, ushbu 5 foizlik chetlanishga ruxsat etilmaydi (2-rasm) [13].

<sup>1</sup> Rasm muallif tomonidan Asakabankning balans ma’lumotlari asosida tuzilgan.



**2-rasm. AT “Asakabank”da import bo‘yicha to‘lanmagan akkreditivlar ulushi (foizda)<sup>1</sup>**

2-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, Asakabank tomonidan mijozlarning import to‘lovi bo‘yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning umumiy hajmida taqdim etuvchiga trattalarni to‘lagan holdagi import bilan bog‘liq to‘lanmagan akkreditivlar hamda muddatli trattalarga qarshi qo‘yilgan import bilan bog‘liq to‘lanmagan akkreditivlar 2020–2024-yillarda juda yuqori salmoqqa ega bo‘lgan. Shuningdek, Asakabank tomonidan mijozlarning import to‘lovi bo‘yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning umumiy hajmida taqdim etuvchiga trattalarni to‘lagan holdagi import bilan bog‘liq to‘lanmagan akkreditivlar ulushi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

**1-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Banklararo elektron to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan to‘lovlarning hisob-kitob shakllari va usullari bo‘yicha tarkibi (foizda)<sup>2</sup>**

| Hisob-kitob shakllari va usullari | Yillar |       |       |       |       |
|-----------------------------------|--------|-------|-------|-------|-------|
|                                   | 2020   | 2021  | 2022  | 2023  | 2024  |
| Memorial order                    | 32,9   | 59,0  | 66,8  | 69,1  | 72,0  |
| To‘lov topshiriqnomasi            | 66,5   | 40,6  | 32,8  | 30,6  | 27,7  |
| Inkasso                           | 0,5    | 0,3   | 0,3   | 0,3   | 0,2   |
| To‘lov talabnomasi                | 0,1    | 0,1   | 0,1   | 0,1   | 0,1   |
| Hujjatlashtirilgan akkreditiv     | 0,0    | 0,0   | 0,0   | 0,0   | 0,0   |
| To‘lovlar — jami                  | 100,0  | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, tahlil davrida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Yagona elektron banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>2</sup> Jadval muallif tomonidan [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) internet-saytining (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki) ma’lumotlari asosida tuzilgan.

to'lovlarning asosiy qismini memorial orderlar va to'lov topshiriqnomalari orqali bajarilgan to'lovlar tashkil etgan. Shu bilan birga, hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasida amalga oshirilgan to'lovlarning jami to'lovlardagi ulushi 0,1 foizga ham yetmagan.

Markaziy bankning Yagona elektron banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlarning umumiy hajmida inkasso va to'lov talabnomasi orqali amalga oshirilgan to'lovlar juda kichik salmoqni egallagan.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Tadqiqot jarayonida tijorat banklarining xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- Tashqi savdoni moliyalashtirishning hujjatlashtirilgan akkreditivlar, trattalar muomalasiga asoslangan inkasso, bank kafolatlari, ijro obligatsiyalari (performance bonds), akkreditivlarni tasdiqlash kabi an'anaviy shakllari bilan birga, an'anaviy bo'lmagan shakllaridan foydalanish eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va import hajmini qisqartirish imkonini beradi.

- Ochiq hisobraqamlar bo'yicha hisob-kitob iqtisodiy va siyosiy risklardan himoyalash imkonini bermaydi. Chunki bu turdagi hisob-kitoblarda jo'natiladigan tovarlar summasi oldindan eksportyorning bankida ochilgan ochiq hisobraqamga o'tkaziladi. Tovarlarning jo'natilganligini tasdiqlovchi hujjatlar eksportyorning bankiga taqdim etilgandan so'ng, eksport tushumi summasi ochiq hisobraqamdan eksportyorning joriy hisobiga o'tkaziladi. Biroq eksportyorning banki ham, importyorning banki ham to'lov yuzasidan javobgar emas.

- Eksportni moliyalashtirishda keng qo'llaniladigan hujjatlashtirilgan akkreditiv eksportyor uchun quyidagi afzalliklarga ega: eksportyor eksport qilingan tovarlar uchun to'lovni kafolatlangan tarzda oladi; ochilgan akkreditivni birinchi toifali xorijiy bank tomonidan tasdiqlatish imkoniga ega bo'ladi; importyor mamlakatining valyuta qonunchiligiga bog'liq bo'lmagan tarzda yetkazilgan tovar uchun to'lovni oladi.

- Asakabank tomonidan mijozlarning import to'lovi bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar summasi 2020–2022-yillarda kamayish tendensiyasini ko'rsatgan. Buning ustiga, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan yanada yuqori sur'atda pasaygan. Bu holat Asakabankning xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

- Asakabank tomonidan mijozlarning import to'lovi bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning umumiy hajmida taqdim etuvchiga trattalarni to'lagan holdagi import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlar va muddatli trattalarga qarshi qo'yilgan import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlar 2020–2024-yillarda yuqori salmoqqa ega bo'lgan.

- Asakabank tomonidan mijozlarning import to'lovi bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning umumiy hajmida taqdim etuvchiga trattalarni to'lagan holdagi import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlar ulushi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

- AT “Asakabank”da mijozlarning import to‘lovi bo‘yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning umumiy hajmida muddatli tratalarga qarshi qo‘yilgan import bilan bog‘liq to‘lanmagan akkreditivlar ulushi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan.

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Yagona elektron banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan to‘lovlarning asosiy qismini memorial orderlar va to‘lov topshiriqnomalari tashkil etadi.

- Hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasida amalga oshirilgan to‘lovlarning jami to‘lovlardagi ulushi 0,1 foizga ham yetmagan.

- Markaziy bankning Yagona elektron banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan to‘lovlarning umumiy hajmida inkasso va to‘lov talabnomasi orqali bajarilgan to‘lovlar juda kichik salmoqqa ega.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko‘rsatish amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

Birinchidan, tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish orqali kompaniyalarning import to‘lovlari bo‘yicha amalga oshiriladigan to‘lovlar miqdorini oshirish zarur. Buning uchun kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish tizimiga “ochiq hisobraqamlar bo‘yicha hisob-kitob” shartini joriy etish, shuningdek, hujjatlashtirilgan akkreditivlarning turlaridan kompleks foydalanish kerak.

Ikkinchidan, tijorat banklarining valyutaviy majburiyatlari va valyutaviy aktivlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash orqali ularning valyutaviy likvidlilik darajasini oshirish lozim. Buning uchun muddatsiz majburiyatlar bilan muddatli aktivlar o‘rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni saqlash, shuningdek, barqaror passivlarning muddati bilan yuqori riskli aktivlarning muddati o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash zarur.

Uchinchidan, jahon miqyosida xalqaro savdoni moliyalashtirish tizimida eng yuqori ulushni “ochiq hisobraqamlar bo‘yicha hisob-kitob” asosidagi to‘lovlar tashkil etishini inobatga olgan holda, respublikamiz kompaniyalarining tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish tizimiga ushbu shartni joriy etish hamda ochiq hisobraqamlarga o‘tkaziladigan to‘lov summalarini banklarning kredit liniyasi doirasida beriladigan kreditlar hisobidan to‘lashni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида//QMMB: 06/22/60/0082-сон. 29.01.2022-у.

2. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг 2020 йил 29 августдаги 18/5-сонли қарорига 1-илова. Ўзбекистон Республикасида валюта операцияларини амалга ошириш қоидалари//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.08.2020 й., 10/20/3281/1242-сон; 26.03.2021 й., 10/21/3281-

1/0237-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 28.07.2021 й., 10/21/3313/0724-сон.

3. Грязнова О.С. Банковское кредитование экспорта в международной торговли//Российский внешнеэкономический вестник. – Москва, 2010. — №12. – С. 50-54.

4. Глориозов А.Г., Михайлов Д.М. Внешнеторговое финансирование и гарантийный бизнес. – М.: Юрайт, 2011. – С. 207-208.

5. Лещукова И.В. Аккредитивы, их виды, преимущества и недостатки//Инновационная наука, 2018. – 11. – С. 80-81.

6. Розинский И.А. Иностраные банки и национальная экономика. – М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2009. – 384 с. – С. 92.

7. Ахмедов Ф.Х. Ўзбекистонда тижорат банкларининг ташқи савдога кўрсатадиган хизматларини такомиллаштириш. И.ф.б.ф.д. автореф.. – Тошкент, 2017. – 47 б.

8. Горохов А.А. Формы безналичных расчетов//Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. - Курск, 2017. – №4. (22). – С. 69-75.

9. Бобакулов Т.И. Ўзбекистон Республикасида миллий валюта курсининг барқарорлигини таъминлаш борасидаги муаммолар ва уларни ҳал қилиш йўллари. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 22.

10. Алимардонов И.М. Кичик бизнес субъектларини кредитлашнинг услубий ва амалий асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2018 – Б.28.

11. Uniformed Rules for Collection. ICC. Publication № 500. [www.iccwwo.org](http://www.iccwwo.org)

12. Uniformed Rules for Collection. ICC. Publication № 500. [www.iccwwo.org](http://www.iccwwo.org)

13. Uniform Custom sand Practice for Documentary Credits. ICC. Publication № 600. – Paris – 1 Jule 2007. – 56 p.// [www.iccwwo.org](http://www.iccwwo.org).



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, oktabr, 10-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**